

OMON MATJON SHE’RIYATIDA BERUNIY DAHOSI TALQINI

Gulruxsor Ollaberganova

Xorazm viloyati Urganch tumani 14-son maktab ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Ollaberganova Og’abek

Xorazm viloyati Urganch tumani 14-son maktab chet tili fani o’qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O’zbekiston xalq shoiri Omon Matjonning “On uchinchi eshik” sheri poetik tahlil asosi qilib olingan bo’lib, unda Abu Rayhon Beruniyning dahosini ochqichlashda shoirning o’ziga xos ifoda uslubi yoritiladi.

Kalit so’zlar: Omon Matjon, “On uchinchi eshik”, Beruniy, Mahmud G’aznaviy “Baytul hikma”

O’zbekiston xalq shoiri Omon Matjon o’zbek she’riyatining zabardast ijodkorlaridan biri. Nazm ixlosmandlari e’tibor qilgan bo’lsalar, shoir ijodida tarixiy mavzu asosiy o’rin egallaydi. “Pahlavon Mahmud”, “Beruniy” kabi tarixiy dramatik dostonlaridan tashqari, bir qator she’rlari bilan ham tarixiy siymolarni, o’tmish voqealarini jonlantiradi. Shunday she’riyat namunalaridan biri “O’n uchinchi eshik” she’ridir.

Omon Matjon bu she’rda o’zbek allomasi Abu Rayhon Beruniy timsolini yaratadi. Tarixdan ma’lumki, Sulton Maxmud G’aznaviy 1017-yilda Ko’hna Urganchni bosib olganidan keyin, 1004-yilda barpo etilgan “Baytul hikma”ni olimlari, ilmiy xazinasi bilan G’aznaga ko’chirib ketadi. Bular orasida donishmand olim Abu Rayhon Beruniy ham bor edi.

“O’n uchinchi eshik” she’rida G’aznaviy saroyi va sulton G’aznaviy shunday tasvirlanadi:

G’azna uzra bo’y cho’zmishdi bot
Haybatli va qo’rqinchli saroy.
Bunday shiddat, bunday mahobat
Bag’dodda ham yo’qdir hoynahoy!

Ichkarisi vahm bir dunyo,
O'n ikkita eshigi bordir,
O'rtada taxt...G'azabnok siymo...
Tegrasida o'n ikki qandil...

Bosqinlardan charchagan, zulmlardan lazzat topa olmagan G'aznaviy yangi shumliklar o'ylaydi. “Dushmanlar hamisha nasablarga ta'na qilishga, nomuslarni yerga urishga urinadilar”, -degan edi Abu Rayhon Beruniy o'z hikmatlarida. Bu hikmatga isbot bo'lkulik voqeani shoir go'zal tarzda ifodalaydi.

O'n ikki eshikli, o'n ikki qandilli saroyda o'tirgan g'azabkor sulton xorazmlik olim Abu Rayhon ustidan kulmoq istaydi va uni oldiga chorlab, o'n ikki eshikning qay biridan chiqib ketajagini topishini buyuradi.

Bazo'r tutgan o'ljasini ham
O'ynab yemoq odat mushukka.
Shohlarning ham ko'ngli, yo egam,
Moyil ekan shunday “qo'shiq”qa!
Yaqinlarin to'pladi Sulton,
Beruniyni kuta boshladi.

Shoir go'zal tashbehtar, xalqona iboralar bilan ikki tarixiy siymo qiyofasiga nozik chizgilar beradi. Bosqinchi sulton Maxmud G'aznaviyni ovsar deb bo'lmasdi. Lekin doimo vazir Hasan riyolariga “qul” bo'lardi. Bu ermakni ham sultonga vazir Hasan eslatdi.

O'ylab boqsang ba'zan kishiga
Hayrat solar o'tmishda bir hol.
Hukmdorlar hamma ishiga
Ahmoqlarga ochdirdilar fol.

Omon Matjon Beruniy siy whole shunday tasvir etadi:
Ana turar u – toza xilqat,
Ko'zlarida ko'kday tubsizlik.

Chehrasida porlar beshafqat

Qat’iy sabot, mujassam o’zlik

Beruniy dahosi, zakosi qarshisida sultonning qattol yuragi zir titradi.
Sezdirmaslik ushun qah-qah urib, savol tashladi:

“Xo’sh!” –deb yana turdi o’rnidan.

“Neni hayol etishimni ayt!

Eshiklarning qaysi biridan

Hozir chiqib ketishimni ayt!”

Shoir ikki siymo nigohlari to’qnash kelishini chinakam poetik mahorat bilan tasvirlaydi. Ikki siymo, ikki xil nigoh. Suv va olov to’qnashuvi. Tun va tong to’qnashuvi. Jaholat va ziyo to’qnashuvi. Betakror Omon Matjonga xos ifoda uslubi kitobxonni hayratga soladi.

Va shu lahza to’qnashdi birrov

Ikki siymo - ikki xil nigoh.

To’qnashganday suv bilan olov,

To’qnashganday o’pqon bilan tog’.

Balki osmon bo’lgandir talash,

To’qnashgandir unda tun va tong.

Shu o’tlug’ zum, shu olov qarash

Lekin mangu etadi davom...

Abu Rayhon qog’oz- qalam olib, yozdi va indamay yozuvni sultonga uzatdi. Sultan g’olib nazar, napisandlik bilan qog’ozni olib, ayonlariga o’n uchinchi eshikni ochtirdi va g’olibona yirish bilan chiqib ketdi. Qaytib kelib, vaziriga xatni o’qishni buyuradi. Beruniy qog’ozga mana shunday yozgan edi:

Kimning agar bor taxt-u toji
Kuch-qudrati tag'in ustuvor, -
Qay tomonga yuz bursa – hajdir,
Qay tomonga shahd etsa – yo'l bor!
Sultonning mag'lub bo'lgan holatini shoir tasvirlamaydi. Kitobxon hukmiga
havola etadi.

Betakror iste'dod mahsuli bo'lmish ushbu she'r she'riyat muxlislariga tarixiy
ma'lumot berish bilan birga estetik zavq, ma'rifiy, ma'naviy tarbiya baxsh eta olishi
bilan ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Omon Matjon “Yonayotgan daraxt” Toshkent 1976-yil.
2. Omon Matjon “Ming bir yog'du” Adabiyot va sanat nashiryoti 1989-yil